

**TA'LIMDA RAQAMLASHTIRISHNING AFZALLIKLARI VA  
KAMCHILIKLARI**

**Ubaydullayeva Samira Ziyodulla qizi**

Andijon davlat chet tillari instituti

Ingliz tili va adabiyoti fakulteti talabasi

E-mail: [samiraxonubaydullayeva@gmail.com](mailto:samiraxonubaydullayeva@gmail.com)

**Yaqubjonova Ro'zixon Mirkomil qizi**

ADCHTI, Ingliz tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi

**ANNOTATSIYA:** Ushbu maqola ta'lim tizimida raqamli transformatsiyalash jarayonini o'rganadi. Raqamli texnologiyalarning ta'limga joriy etilishi, o'quvchilar va o'qituvchilar uchun yaratilgan qulayliklar, masofaviy ta'lim imkoniyatlari, axborotga tezkor kirish, ta'lim sifatini yaxshilash, o'quv jarayonini samarali tashkil etish kabi jihatlar yoritib beriladi. Shu bilan birga, texnik infratuzilmaning yetishmasligi, insoniy muloqotning kamayishi va raqamli savodxonlik darajasining pastligi kabi muammolar ham ko'rib chiqiladi. Bundan tashqari, maqolada raqamli texnologiyalar tahdidlari va uni ta'lim tizimiga tatbiq etishdagi kamchiliklar ham tahlil qilinib, kerakli taklif va tavsiyalar beriladi.

**KALIT SO'ZLAR:** raqamli transformatsiya, masofaviy ta'lim, ta'lim tizimi, raqamli texnologiyalar, ta'lim muassasalari

**АННОТАЦИЯ:** В данной статье исследуется процесс цифровой трансформации в системе образования. Освещаются такие аспекты, как внедрение цифровых технологий в образование, удобства для учащихся и преподавателей, возможности дистанционного обучения, оперативный доступ к информации, повышение качества образования и эффективная организация учебного процесса. Также рассматриваются такие проблемы, как недостаток технической инфраструктуры, снижение уровня межличностного общения и низкий уровень цифровой грамотности. Кроме того, анализируются угрозы цифровых технологий и недостатки их внедрения в систему образования, предлагаются соответствующие рекомендации и предложения.

**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:** цифровая трансформация, дистанционное обучение, система образования, цифровые технологии, образовательные учреждения.

**ABSTARCT:** This article explores the process of digital transformation in the education system. It highlights aspects such as the integration of digital technologies in education, conveniences for students and teachers, opportunities for distance learning, quick access to information, improvement of education quality, and the effective organization of the learning process. The paper also addresses challenges such as insufficient technical infrastructure, reduced human interaction, and low levels of digital literacy. Furthermore, it analyzes the threats posed by digital technologies and the shortcomings in their implementation within the education system, offering appropriate suggestions and recommendations.

**KEYWORDS:** digital transformation, distance learning, education system, digital technologies, educational institutions.

**KIRISH:** Jamiyatning rivojlanishi va taraqqiy topishida ta'lim tizimining o'rni va roli beqiyosdir. XXI asr - raqamli texnologiyalar va innovatsialar asri, ta'lim tizimi rivojlanishini yangi bosqichga olib chiqdi. Masofaviy ta'lim, onlayn darsliklar, elektron jurnal va kundaliklar, sun'iy intellektga asoslangan ta'lim platformalari kabi innovatsion vositalar o'quv jarayonini qulayroq, ochiqroq va samaraliroq qilishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, raqamli ta'lim tizimiga o'tish ayrim muammolar va qiyinchiliklarni ham yuzaga keltirmoqda. Ushbu maqolada ta'lim tizimini raqamlashtirishning asosiy afzalliklari va mavjud kamchiliklari tahlil qilinadi hamda ushbu jarayonning istiqbollari haqida atroflicha fikr yuritiladi.

Raqamlashtirish — bu axborot, xizmatlar, jarayonlar va faoliyatlarni raqamli texnologiyalar orqali avtomatlashtirish, raqamli formatga o'tkazish jarayonidir. Boshqacha aytganda, raqamlashtirish — bu ma'lumotlarni qog'ozdan yoki an'anaviy shakldan kompyuterlar va internet orqali ishlatiladigan shaklga o'tkazishdir. Ta'lim jarayonida raqamli transformatsiya tushunchasi esa ta'lim tizimining barcha jihatlarida raqamli texnologiyalarni joriy etish va ularni ta'lim jarayonida samarali qo'llashni anglatadi.

Misol uchun, dars jarayonini onlayn platformalarga o'tkazish. Zoom, Google Classroom, Moodle va shu kabi dasturlar orqali o'quvchilar uyda o'tirgan holda onlayn darslarda qatnasha oladi. O'qituvchi bilan muloqot qilib, o'zi qiziqqan savollarga javob olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu ta'lim shakli, ayniqsa, pandemiya davrida juda asqotdi.

Elektron darsliklar, videodarslar va test tizimlaridan foydalanish. Bunda o'quvchi og'ir kitoblarni ko'tarib yurishi yoki har kuni uzoq masofani bosib o'tib darsga kelishiga xojat qolmaydi.

O'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasidagi muloqotni raqamli vositalar orqali amalga oshirish (chat, elektron pochta, forumlar). Raqamlashtirish sharoitida o'qituvchi va o'quvchi faqat dars vaqtida emas, balki istalgan vaqtda va joyda bog'lana oladi. Bu esa darsdan tashqari o'rganishni, savol-javob qilishni va maslahat olishni osonlashtiradi.

Elektron kundalik, reyting tizimi va elektron hujjatlar yuritish. Bunda hujjatlar tartibli va xavfsiz saqlanadi. Ularni qidirish, nusxa olish va yuborish oson. Elektron kundalik tizimi esa ta'lim tizimida shaffoflikni oshirishda yanada qo'l keladi va o'quvchilarning ota-onalari ham farzandlarining o'zlashtirishini onlayn tarzda kuzata oladi.

Sun'iy intellekt va tahlil vositalari yordamida o'quv jarayonini boshqarish va monitoring qilish. Raqamli ta'lim jarayonida sun'iy intellekt (SI) va ta'limiy tahlil vositalari tobora muhim o'rin egallamoqda. Bu texnologiyalar ta'lim jarayonini tahlil qilish, rejalashtirish, shaxsga moslashtirish va sifatni baholashda muhim ahamiyatga ega.

Muxtasar qilib aytganda, raqamlashtirish ta'limni yanada tezkor, ochiq, moslashuvchan va shaxsga yo'naltirilgan qilishga yordam beradi. Biroq raqamlashtirishning ta'lim tizimiga tatbiq etilishida bir qancha kamchiliklarni ham e'tibordan chetda qoldirmaslik lozim.

Hozirda texnik infratuzilmaning yetarli emasligi sababli ba'zi maktablar, ayniqsa qishloq hududlari, kompyuterlar, planshetlar, internet aloqasi bilan to'liq ta'minlanmagan. Bu esa raqamli ta'limdan to'liq foydalanishga to'sqinlik qiladi. Bundan tashqari, hamma o'qituvchilar ham raqamli texnologiyalardan foydalanishni yaxshi bilmaydi, chunki test tuzish, onlayn platformalarda ishlash yoki sun'iy intellektdan foydalanish ko'pchilik uchun yangilik bo'lishi mumkin. Bu esa dars sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Masofaviy ta'limda o'quvchilarni haqiqiy qatnashishi, topshiriqlarni o'zlari bajarishi va darsni tushungan-tushunmaganini aniqlash ancha murakkab bo'ladi. Bu esa baholashda noaniqliklarga sabab bo'ladi.

Ekran oldida uzoq vaqt o'tirish salomatlikka zarar. Kompyuter yoki telefon orqali uzoq dars qilish ko'z, umurtqa, ruhiy holatga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Axborot xavfsizligi va maxfiylik muammolari. Onlayn tizimlar orqali shaxsiy ma'lumotlar tarqalib ketishi, tizimlarga buzib kirish (xakkerlik) kabi xavflar mavjud.

Internet tarmog'idagi uzilishlar, texnik nosozliklar va ma'lumotlarni himoya qilish bilan bog'liq masalalar ham ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarning to'liq joriy etilishiga to'sqinlik qilishi mumkin. Shunday qilib, ta'lim tizimida raqamli transformatsiyani muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun texnik infratuzilmani mustahkamlash va o'qituvchilarni raqamli texnologiyalarni qo'llashga tayyorlash zarur.

**XULOSA:** Ta'lim tizimini raqamlashtirish — bu zamonaviy jamiyatning zaruriy ehtiyojlaridan biridir. U ta'lim sifatini oshiradi, o'qitish va o'rganishni yanada qulaylashtiradi va individual yondashuv imkonini beradi. Biroq bu jarayon texnik, metodik va ijtimoiy jihatdan puxta tayyorgarlikni talab qiladi. Kamchilik va xavflarni kamaytirish uchun raqamli ta'lim bosqichma-bosqich, tizimli va barqaror tarzda joriy qilinishi lozim. To'g'ri yondashuv orqali raqamlashtirish ta'lim sohasida sifat, tenglik va innovatsiyalarning kafolati bo'lib xizmat qiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Aliyeva Nodira. Ta'lim tizimida raqamli transformatsiya." Ilm fan taraqqiyoti: muammo, yechim va istiqbollari II an'anaviy " mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya . Toshkent 17-18 dekabr. 2024

2.1. Tajimamatovich, J. V. (2023). Pedagogical Management Ability of Socio-Cultural Activity Owners. American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 1(6), 14-17.

3. Norqulova D.R ,Bo'riyev B.B ,Botirov J.B .Oliy ta'limni raqamlashtirishning asosiy afzalliklari va imkoniyatlari. O'zbekiston fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. ( 291-294) .

26-son. 20-yanvar 2024.